

**GEOGRAFIYA FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TALIM
TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI**

Samarqand viloyati Urgut tumani 70-maktab geografiya fani o'qituvchisi
Musurmanova Nafisa Xolmirza qizi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada geografiya fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, frontal o'qitish, individual ishlash, ekskursiya, juftlikda ishlash*

Yosh avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lib kelgan. Insoniyat boshidan kechirgan barcha tuzumlarda o'z davrining o'qimishli, ziyoli, bilimli kishilari dunyo ilm fani madaniyatiga salmoqli hissa qo'shganlar.

Yoshlarni mustaqil bilim olishiga o'rgatish bugungi kunning muhim dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish innovatsion faoliyatni yuzaga keltirdi. Bu orqali zamonaviy ta'limni tashkil etishni keng imkoniyatlari eshigi ochildi. Zamonaviy ta'lim tashkil etishning o'ziga xos talablari mavjud bo'lib, uning muhim talablaridan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish hisoblanadi.

Qisqa vaqt ichida muayyan bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ulardan ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Ko'pgina fanlarni o'rganishda innovatsion texnologiyalar asosiy o'rin tutmoqda. Ana shunday fanlardan biri geografiya fanidir. Boshqa bir qator fanlar singari geografiya o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati beqiyosdir. Innovatsion texnologiyalar orqali geografiyani yanada chuqurroq o'rganish imkoniyati yaratildi.

Bugungi kunda boshqa fanlar qatorida geografiyani o'qitishda o'quvchilarni o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim tarbiya jarayonini samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar ya'ni interfaol metodlardan foydalaniladi.

Geografiya va tabiatni bilish muhim ahamiyat kasb etganligi bois uni o'qitish tizimini isloh etish, dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishni ilg'or usullarini qo'llash ta'lim tizimidagi dolzarb masalalardan biri hisoblandi. Shu asnoda yangi darsliklar, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratilmoqda. Ular o'quvchilar savodxonligini oshirish, aqliy qobiliyatini rivojlantirish, nutqni o'stirish, ijodiy fikrlay olish hamda ta'lim-tizimlari orasidagi uzviylikni ta'minlashga qaratilmoqda. Geografiya va tabiatni bilish muhim ahamiyat kasb etganligi bois uni o'qitish tizimini isloh etish, dars jarayonlarida zamonaviy pedagogic va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishni ilg'or usullarini qo'llash ta'lim tizimidagi dolzarb masalalardan biri hisoblandi. Shu asnoda yangi darsliklar, o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratilmoqda. Ular o'quvchilar savodxonligini oshirish, aqliy qobiliyatini

rivojlantirish, nutqni o'stirish, ijodiz fikrlay olish hamda ta'lim-tizimlari orasidagi uzviylikni ta'minlashga qaratilmoqda. Shu asnoda geografiya fani o'qitilishining innovatsion shakllarini quyidagicha olib boorish maqsadga muvofiq:

- frontal o'qitish;
- jamoa bo'lib o'qitish;
- guruhlarga bo'lib o'qitish;
- juftlikda ishlash;
- individual o'qitish;

O'qitishning umumiy shakllarini ajratish o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ aloqa xususiyatlariga asoslanadi.

- Frontal o'qitish - o'qitishning an'anaviy shakllaridan biri hisoblanib o'qituvchi butun sinf bilan yagona mazmun, maqsad va vazifalar asosida ish olib boradi. Bu o'qitish shaklida amaliy, suhbat, ko'rgazmalilik metodlarini qo'llashda hamda o'quvchilar bilimini nazorat qilishda foydalaniladi. O'qitishning frontal shaklida dars o'qituvchi an'anaviy usuldagi kabi tushuntirib, savol-javob o'tkazish bilan emas, balki o'qituvchi va o'quvchi orasidagi suhbat, yangi tushunchalarni muhokama etishi hamda birgalikda yechimlarini topishdan iborat. Bunda darsning bir qismi xarita bilan ishlashga mo'ljallanadi va o'quvchi uchun mustaqil ishlashga imkon beriladi. O'qituvchi esa maslahatchi sifatida faoliyat yuritadi.

- Jamoa bo'lib ishlash - o'qitishning frontal shaklidan shunisi bilan farq qiladiki, bunda sinf o'quvchilari o'z sardoriga va alohida o'zaro aloqa qilish xususiyatlariga ega yaxlit bir jamoa kabi qaraladi.

- Guruhlarga bo'lib ishlash - o'quvchilar turli xususiyatlarga asoslangan va turli muddatda shakllangan gurug'larga bo'linadi. O'qitishning bu shaklidan foydalanilganda, guruhlar ichida jadal axborot almashinuvi amalga oshadi. Shu sababli shakllantirilayotgan guruhlar tarkibi turli bilim darajasiga va turli qiziqishga ega o'quvchilardan iborat bo'lishi muhim. Turli bilim darajasidagi o'quvchilarning bir-biri bilan muloqot qilishi natijasida bilim, ko'nikma va malakarini o'zlashtirish samaradorligi yanada ortadi.

- Juftlikda ishlash - o'zaro hamkorlik ikki o'quvchi orasida kechadi, bu holda ular bir vazifani tahlil etishlari, bir-biriga o'rgatishlari va bir-birlarini nazorat qilishlari ham mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, ayrim hollarda o'quvchilarga sinfdoshining yordami o'qituvchisining yordamidan ko'ra ko'proq samara beradi.

- Individual ishlash - o'qituvchining bir o'quvchi bilan o'zaro aloqasi hisoblanib (repetitorlik, maslahatlar va boshqalar)

Geografiya darslarida ekskursiyalarni ham ahamiyati nihoyatda katta. Ekskursiya - asosiy maqsadi "Jonli" tabiatni nazorat qilish va ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda kasbga yo'naltirishdan iborat. Ekskursiyani kurs, bo'lim, mavzularni o'rganilgandan keyin o'tkazilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Unda o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotda bog'lay olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ekskursiyani turistik ekskursiyadan farqi - o'quvchilarning yuqori kompetentlikka egaligi va egallangan bilimlarning yuqori aniqlikda ekanligidadir. Bugungi kun innovatsion ta'limida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'рни beqiyosdir. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30%gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchi berilayaotgan qo'llanmalarni

ko'rish (vedio) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30% oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv qo'llanmalari audio, video

ko'rinishida mujassamlashgan ko'rinishda berilsa, qo'llanmalarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

Geografiya ta'limining asosiy vazifalaridan biri axborot texnologiyalaridan va shunga ko'ra ta'limning yangi vositalari, ya'ni o'quv filmlaridan foydalanishdir. O'quv filmlari barcha sinflarda mavzulashirilgan tartibda o'quvchi ommasiga tushunarli misollar bilan tayyorlangan.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayoning samaradorligini oshirishda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda va o'rganilayotgan fanni yanada mukammal o'zlashtirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta ekanligini ta'kidlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bozorov E.B., Musurmonova O.A. O'qituvchi ijodkorligi davr talabi.-T.:O'qituvchi.1991.

2. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-T, 2001.

3. Yo'ldoshev. J.G'. Usmonov.S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.-T.: O'qituvchi, 2004.

4. Jo'rayev R.H., Zunnunov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalashtirish omillari. O'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma. -T.: Sharq, 2005.

5. Mengliyev B., Xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. -T.: 2013-yil